

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

SHARQ UYG‘ONISH DAVRI MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK TA’LIMOTIDA YOSHLARNI INTELEKTUAL SALOHIYATINI TARBIYALASH

Turdiqulova Nilufar To‘lqin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika va psixologiya” fakulteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbumaqoladadunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratli ekanligi, sharq uyg‘onish davri mutafakkirlarining pedagogik ta’limotida yoshlarni intellektual salohiyatini tarbiyalash davr talabi asosida o‘zbek pedagogikasi tarixi turli oqimlar, jarayonlar ta’sirida rivojlanib kelganligi, umuman olganda sharq uyg‘onish davri mutafakkirlarining pedagogik ta’limotida yoshlarni intellektual salohiyatini tarbiyalash masalalari yoritib berilgan.*

Kalitso‘zlar: *dunyo, munosabat, hurmat, shakllantirish, yoshlar, intellektual, salohiyat, tarbiyalash, insoniyat, tafakkur, buyuk, kashfiyot, yuksak ma’naviyat, qudratli, millat, sharq uyg‘onish davri, mutafakkir, pedagogik ta’limot, oqim.*

Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, – dedi Prezidentimiz.

Yoshlarni intellektual salohiyatini tarbiyalashda Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari Imom Buxoriy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Alisher Navoiy kabilarning pedagogik ta’limoti merosi xalqlarimizning milliy yuksalishiga katta hissa qo‘shgan. Qozizoda Rumiy Samarqandda mudarrislik qilgan. Ali Qushchi hayotining so‘nggi yillarini Istanbulda o‘tkazgan. Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif So‘fizoda, Said Ahroriy kabi ko‘plab jadid bobolarimiz Turkiyada tahsil olgan.

Bugungi kunda Istanbulda Abu Rayhon Beruniy nomidagi universitet bor. Turkiya kitob fondlarida Alisher Navoiy asarlarining 100 dan ortiq qo‘lyozmalari saqlanib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda zamonaviy maktablar, ilmiy-ma’rifiy markazlar tashkil etilayotganini ta’kidlaydi.

Samarqandda Imom Buxoriy, Surxondaryoda Imom Termiziy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, shuningdek, hadis, kalom, aqiyda, tasavvuf, fiqh maktablari ochilgan. Toshkent shahrida ko‘p asrlik ma’rifat xazinasini namoyon etadigan, fundamental tadqiqotlar olib boriladigan Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilmoqda.

Bu yil ulug‘ allomalar Abduxoliq G‘ijduvoni va Bahouddin Naqshband tavalludlariga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkaziladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy tug‘ilganining 145-yillik sanasi nishonlanadi. Shuningdek, joriy yilda Buxoro shahri "Islom madaniyati poytaxti", Xiva shahri "Turkiy dunyo madaniyati poytaxti" deb e‘lon qilingani munosabati bilan bir qator xalqaro anjumanlar tashkil etilishi rejalashtirilgan. O‘zbekistonning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod noyob qo‘lyozma asarlar saqlanayotgani, ularning aksariyati o‘z tadqiqotchilarini kutayotganini ta’kidladi, yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev.

Yuqorida keltirilgan bir qator fikrlarda ham intellektual salohiyatni shakllanirish masalasi barcha davrda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

komillikning asosi ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti gʻoyalariga koʻra yetuklikning bosh mezon - ilmlilik, bilimli boʻlishdir.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham intellektual salohiyatli komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (yetuk jamiyat) ni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yoʻnalishi ekanligiga urgʻu beradi. Allomaning fikricha, fozil jamiyat komil inson saʼyi-harakati bilan barpo etilishi mumkin. Shu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs oʻzida eng oliy insoniy fazilatlarini mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. «Aql maʼnolari togʻ risidagi» risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon boʻlishi lozim boʻlgan oʻn ikki fazilatni keltirib oʻtadi. Bizning fikrimizcha, mazkur fazilatlar har bir zamonaviy shaxsda oʻz aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotini moʻtadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham komillikning asosini intellektual salohiyat, ilmi boʻlishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urgʻu beradi. Allomaning fikricha, axloqiylik, toʻgʻrilik, odillik, tadbirkorlik, oʻzini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolatli va vijdonli boʻlish komil inson qiyofasida aks etishi zarur boʻlgan eng asosiy sifatlardir. Abu Ali ibn Sino ham kamolotga erishishning birinchi mezon sifatida bilimli boʻlishni alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli boʻlishi esa uning yanada yuksalishini taʼminlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy xotirjamlik)ning muhim koʻrsatkichi ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida intellektual salohiyat, komil inson muammosi markaziy oʻrinni egallaydi va oʻz orzusidagi intellektual salohiyatli komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalanitirishga urinadi. Mutafakkir qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega boʻlishi borasidagi gʻoya ilgari suriladi: aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, saqovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sogʻlom, jismonan baquvvat, mard va jasur.⁷

Abdulla Avloniy intellektual salohiyatli komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlari bilan Sharq mutafakkirlarining fikrlarini boyitar ekan, intellektual salohiyatli komil inson qiyofasida, yana shuningdek, vatanparvarlik, hamda intizomlilik sifatlari ham namoyon boʻlishi kerak, deb hisoblaydi. Alloma millat taqdirining jonkuyari sifatida milliy til taraqqiyoti jamiyat maʼnaviy rivojini taʼminlovchi asosiy omil, deya baholaydi.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini taʼminlashdagi oʻrni va roliga alohida eʼtibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan oʻzgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli taʼsir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub boʻlgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni taʼkidlaydi. Bolani yomon taʼsirlardan saqlash zarurligini uqtiradi.

Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda». Sharq xalqlari koʻp asrlarga borib taqaluvchi madaniyatga ega ekanligi hammaga ayon. Ana shu madaniy yodgorliklar inson qoʻli, aqli, mahorat va malakasi oʻtmishdan qabul qilib olgan hayotiy tajribasi natijasidagina milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga, sanʼat va adabiyot asarlariga aylangan demak, madaniyat oʻz-oʻzidan paydo boʻlib qolmay, koʻp darajada taʼlim va tarbiya mevasi sifatida shakllangan. XI asrda Xorazmda ilm-fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Maʼmun II oʻz saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan —Bayt-ul-hikmal - Donishmandlar uyi tarixda —Maʼmun akademiyasil deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Masixiy, tabib 4 Abulxayr Xammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shugʻullanganlar. Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib maʼnaviy koʻtarilish Sharq Renessansi – Uygʻonish davrining boshlanishiga olib keldi. Movarounnahrda ilm-fan va maʼrifat sohasida oʻz xizmatlari bilan dunyoga mashhur boʻlgan

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

aylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, sharq uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, ta'lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi. Yuqorida tilga olingan mutafakkirlar va ularning o'lmas ma'naviy-madaniy merosi yosh avlodni intellektual salohiyatli ya'ni yuksak axloqli, mehnatsevarlik, ilmga chanqoqlik, sof vijdonlilik, ota-onaga va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim-tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ochib beriladi. Shu jumladan Islom olamining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»da ham komillikning beshta tamoyili komillikka erishish uchun talab etiladi.

1. Mehnatim muhabbatim.
2. Ma'rifatim sarmoyam.
3. Dinim aqlim.
4. Ilmim qurolim.
5. Sabru qanoat libosim.

IX-XV asrlar Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyati rivojida muhim davr hisoblanadi. Shu bois faylasuf, tarixchi, pedagog, matematik olimlar bu davr madaniy-ma'rifiy merosi haqida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Pedagog – olimlarning Sharq mutafakkirlari ijodida ta'lim-tarbiya, shaxs ma'naviy kamoloti masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning pedagogika fani rivojida muhim o'rni bor. Lekin ular allomalar merosida olg'a surilgan ta'lim-tarbiya masalalarini yoritishda milliylik tamoyilidan kelib chiqqan holda yondashmadilar.

Aslida Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo'la oladigan hodisadir.

Sharq Renessansi deb nom olgan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lib, bu davrda ilm-fanning ikki yo'nalishi (birinchisi) inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko'zi bilan egallanadi, (ikkinchisi) bu fanlar inson tomonidan (boshqa) kishilardan taqlid qilib o'rganiladi, ular asosida shariat qonunlari yotadi. Bu fanlarning asosini Qur'onda va Sunnada bo'lga Alloh va uning elchisining oldindan belgilab bergan yo'l-yo'riqlari tashkil etadi.¹

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Ular:

- aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog'langa qadriyatlar;
- ma'naviy-ruhiy qadriyatlar;
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
- badiiy-nafis qadriyatlar;
- diniy qadriyatlar tarzida o'z ifodasini topgan.

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, madaniy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Uning ta'limotida, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi.

Forobiy bu dunyoqarashida narsa-hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmi, ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi. U o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмедова М. Т. Педагогик компетентлик //Т.: ТДПУ. – 2016.
2. Alikhanovich M. N. et al. IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY FOR THE FUTURE TEACHERS' PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 9. – С. 2372-2380.
3. Ахмедова М. Т. INFORMATION SECURITY IN INTERNAL AND EXTERNAL POLICY OF THE STATE //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2020. – №. SPECIAL 2.
4. Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. Ўқув қўлланма. -Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2017. – 320 б.
5. Аскарлова, Н. А., and Ф. Ф. Расулова. "ДИҚҚАТ ЕТИШМАСЛИГИ СИНДРОМИ ЎҚУВЧИЛАРДА АГРЕССИЯ ВА ХУЛҚИЙ БУЗИЛИШЛАРНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ОМИЛ СИФАТИДА." *Сборники конференций НИЦ Социосфера*. No. 22. Vedecko vydavateľske centrum Sociosfera-CZ sro, 2016.
6. Аскарлова, Н. А., М. Д. Файзиева, and Т. Т. Мамаджонова. "ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА ЎЗИНИ-ЎЗИ АНГЛАШ ЖАМИЯТГА МУВАФФАҚИЯТЛИ МОСЛАШУВ ОМИЛИ СИФАТИДА." *Сборники конференций НИЦ Социосфера*. No. 18. Vedecko vydavateľske centrum Sociosfera-CZ sro, 2016.
7. Аскарлова Н.А., Сайфуллаева З.И. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ. GURRENT ISSUES OF SCIENCE, PROSPECTS AND CHALLENGES. INTERNATIONAL SCIENTIFIC. 17 DECEMBER, 2021. SYDNEY, AUSTRALYA.
8. М.Е.Ахмедова, R.N.Melibayeva, N.A. Askarova Tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalari va mahalla faoliyati tizimida ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni takomillashtirish. Monografiya. TTA nashriyoti, 2021.
9. Бекмиров Т. Р. PROFESSIONAL PEDAGOGY OF HIGHER EDUCATION AS AN IMPORTANT FACTOR //Интернаука. – 2019. – №. 44-2. – С. 61-62.
10. Мелибаева Р. Н. Формирование самостоятельного и творческого мышления студентов в процессе поиска решения проблемной ситуации //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2012. – №. 12.
11. Melibayeva, R. N., Khashimova, M. K., Narmetova Yu, K., Komilova, M. O., & Bekmirov, T. R. (2020). Psychological mechanisms of development students' creative thinking. *International journal of scientific & technology research*, 9(03).



Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

12. Норметова Ю. Изучение социально-психологических подходов к проблемам здоровья и болезни //От истоков к современности. – 2015. – С. 304-306.
13. Нарметова Ю. К. ИНТЕГРИРОВАННЫЙ ПОДХОД КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ КЛИНИЧЕСКИХ ПСИХОЛОГОВ //ХАБАРШЫСЫ. – С. 57.
14. Нарметова, Ю. (2016). СПЕЦИФИКА РАБОТЫ ПСИХОЛОГА В КЛИНИКЕ ВНУТРЕННИХ БОЛЕЗНЕЙ. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 33(4), 53–57.
15. Нурматов А. Тиббий соҳа ходимлари касбий идентификациясида бола тарбиясида психологик тавсиф. – 2021.